

## NOADABIY LEKSIKANINIG SAMARALI USULLARI

**Xolmatova Ergashoy Salimjon qizi**

*Farg'ona davlat universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada noadabiy leksikani tildan tilga o‘g’irishning samarali usullari haqida so‘z boradi. Unda til muayyan tuzilishga ega bo‘lgan ijtimoiy aloqa vositasi, uning asosini esa leksik birlik tashkil etishi, tadqiqotlar tahlili asosida leksik birlikni bilish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolari muhokama qilingan. Leksik birlikni bilish turli xil elementlarni o‘z ichiga olganligi va tipologiyalar tahlili hamdausullari yoritilgan*

**Kalit so‘zlar:** *leksik birlik, tipologiya, Qo‘shma so‘zlar, so‘zlar birikmasi, semantik so‘zlar, idiomatik, yangi leksik birliklar, ildiz so‘zları, asosiy so‘zlar, prefikslar, qo‘srimcha so‘zlar*

Ma’lumki, til muayyan tuzilishga ega bo‘lgan ijtimoiy aloqa vositasi, uning asosini esa leksik birlik tashkil etadi. Ko‘pgina tadqiqotchilar leksik birlikni bilish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni muhokama qilgan. Odatda leksik birlikni bilish turli xil elementlarni o‘z ichiga oladi degan xulosaga kelishgan. Leksik birlikni bilish uning barcha xususiyatlari bilan bilishni anglatadi. Shuningdek, rus olimlari leksik birliklarni o‘rganishning har xil tipologiyalarini aniqlashgan. Nikolayevning tipologiyasi keng e’tirof etildi. U ikkita mezonga asoslanadi:

- 1) mumkin bo‘lgan aralashuvni hisobga olgan holda ona tili va chet tillaridagi so‘zlarning tarkibi va shakli nisbati;
- 2) so‘zning o‘zi o‘rganiladigan tilidagi tabiat.

N.V.Nikolayeva so‘zlarning sakkiz turini taklif qildi. Ular quyidagilar: 1. Ikki tilda bir xil ma’noga ega bo‘lgan xalqaro so‘zlar.

2. Qo‘shma so‘zlar, shuningdek tarkibiy qismlari o‘quvchilarga tanish bo‘lgan so‘zlarning birikmasi.

3. Hajmi ona tilidagi so‘zlarning semantik hajmiga zid bo‘lmagan so‘zlar.

4. Tarjima qilinadigan til uchun tarkibiga xos so‘zlar.

5. Ildizning ona tili bilan umumiyl bo‘lgan, ammo mazmuni jihatidan farq qiluvchi so‘zlar,

6. Alovida tarkibiy qismlari, o‘quvchilarga ma’lum bo‘lsa-da, idiomatik, ammo ma’no jihatidan mahalliy ma’noga yaqin so‘zlarga o‘xshash bo‘lmagan birikmalar va qo‘shma so‘zlar.

7. Lug‘aviy yagona ma’no doirasi mos keladigan ona tilining ma’no doirasidan kengroq so‘zlar.

8. Leksik birliklar, ularning hajmi ona tilidagi tegishli so‘zlarining hajmiga teng so‘zlar[1]. Shamovning ta’kidlashicha lug‘at - bu so‘zlar to‘plami va ularning ma’lum bir tizimni tashkil etuvchi assotsiatsiyalarning boshlang‘ich funksiyalari Leksika – lug‘at va leksik birliklardan iborat. Maktabda o‘rganiladigan leksik birliklarning soni har xil turdagи maktablar uchun chet tili dasturi bilan belgilanadi. Ushbu hajm 450 leksik birlikdan 1200

leksik birlikgacha bo‘lishi mumkin. Leksik birlik va so‘z bir xil narsa emas. Har bir so‘z leksik birlikdir. Biroq, har bir leksik birlik so‘z emas. Leksik birliklar butun yoki alohida bo‘lishi mumkin. Butun leksik birliklar so‘zlar deyiladi Leksik birlikni bilish, ehtimol yozma yoki og‘zaki shaklni tanib olishni va uning ma’nosini bilishni o‘z ichiga oladi[2].

Ammo leksik birliklar ancha murakkab bo‘lishi mumkin, shuningdek, leksik birlikni qachon va qanday qilib to‘g‘ri ishlatilishini bilishni ham o‘z ichiga oladi.

Dunyoning bir qator olimlari, mutaxassislari qatorida Filatov M.V., Richard, Malvern, Milton, Dallerva boshqa[3] olimlar leksik bilimlarini ajratib olish va ushbu bilimlar uch o‘lchov bilan tavsiflanishi mumkinligini ta’kidlashgan. Ularning fikricha leksik bilimlarini qo‘yidagicha tasniflagan: kenglik, chuqurlik va ravonlik. “Ravonlik talabaning o‘zi biladigan leksik birliklarni tanlash va ulardan foydalanish qulayligi va tezligini, shunchaki leksik birliklarni tanib olish va ulardan qanday foydalanish haqida bilishidan ajratib turadi”.

Miltonning fikricha Tilni yaxshi bilish – bu avvalgi til bilimlariga asoslanib, hech qanday ko‘rsatmalardan foydalanmasdan, erkin foydalanish haqida so‘zlashish qobiliyatidir, bu esa leksik birliklarni bilishning ko‘p jihatlaridan, ehtimol ongsiz ravishda xabardor bo‘lishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, bu suhbat yoki yozish vazifasidagi leksik birliklarning tezligi va maqsadga muvofiqligini anglatadi[4]. Neshinning taklifi biror bir leksik birlikni bilish qo‘yidagilarni o‘z ichiga oladi.

Xorijiy tillardagi yangi leksik birliklarni o‘rganishni osonlashtiradigan bir nechta umumiyl tamoyillar ham mavjud bo‘lib buni olimlar o‘zlarining ilmiy ishlarida sanab o‘tishgan.

1. Dars mavzusi doirasida yangi so‘zlarni o‘rgatish va talabalardan yangi so‘zdan foydalanishni talab qilish.

2. Yangi leksik birliklarning to‘g‘ri talaffuzini eshitish va uni baland ovoz bilan mashq qildirish.

3. Talabalarga tez-tez uchrab turadigan leksik birliklarning qismlarini o‘rgatish - ildiz so‘zları, asosiy so‘zlar, prefikslar va qo‘sishchalar,

4. Talabalarga so‘zlarning o‘zaro bog‘liqligini tushuntirish va tushunishlariga yordam berish uchun turli xil klasterlardagi so‘zlarini o‘rgatish Marinak va boshqa olimlar,

5. Yangi leksik birliklarning ma’nosini bilan bog‘liq misollarni ishlatilish va ishlatilmaydiganlarni aniqlash,

6. Talabalarga yangi leksik birliklarni o‘zlariga tanish bo‘lgan narsalar bilan bog‘lashda yordam berish,

7. Talabalarga yangi leksik birliklar bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy g‘oyani aniqlab olishlari va uning yanada kengroq, umumiyroq asosiy g‘oyasini aniqlaydigan ba’zi ma’lumotlarni tanib olishlari uchun yangi atama ta’rifini qayta tuzish imkoniyatlarini taqdim etish,

8. Talabalarga o‘quv jarayoniga faol jalb etiladigan turli xil o‘qitish metodlari va usullari yordamida yangi so‘z boyliklarini oshirish imkoniyatini berish.

A. Jo‘rayev ta’kidlaganidek nutq faoliyatini amalga oshirish uchun qiyinchilik tug‘diradigan metodik muammolardan biri talabalarning so‘z larni noto‘g‘ri tanlab ishlatishlaridir. Chet tilda nutq hosil qilish jarayonida so‘zni o‘sha tilda gapiruvchilar

J.Jalolov o‘zining “Chet til o‘qitish metodikasi”dan ma’lumki, eng ko’p qo‘llanadigan birinchi minglikdagi leksik birliklar o‘rtacha qiyinchilikdagi matnning 80 foizi mazmunini tushunib olish imkonini beradi, ikkinchi minglik 8 – 10 foiz, uchinchisi 4 foiz va to‘rtinchi va beshinchi minglik bu imkoniyatni atigi 2 foizga oshiradi. Asosiy ikki mingta leksik birlik matndan 85-90 foizgacha axborot olish uchun kifoya. Biroq, yuqorida ta’kidlanganidek, bu yerda gap mavjud ilmiy mezonlarga binoan maxsus tanlanadigan leksika haqida boryapti. Tanlash mezonlari deganda, leksikaning qiymatini aniqlashda qo‘llanadigan o‘lchov va ko‘rsatkichlar tushuniladi. Uch toifa mezonlar bir-biri bilan bog‘langan holda qo‘llanadi. Bular hisob-kitob mezonlari, metodik mezonlar, tilshunoslik mezonlari.

Xulosa qilganda, so‘z boyligi tilning nihoyatda muhim jihatni bo‘lib, chet tilida muloqot qilish qobiliyati leksik ko‘nikma va malakalarining shakllanish darajasiga bog‘liq. Lug‘atni o‘rganish juda katta va ko‘p vaqt talab qiladigan vazifa bo‘lib, uni o‘qitish tamoyillarini to‘g‘ri qo‘llash ijobiy natijani kafolatlaydi. So‘z boyligini yanada samarali o‘qitish uchun didaktik (ong, ravshanlik, mavzulararo muvofiqlashtirish), lingvistik (tilni minimallashtirish, konsentrizm), psixologik (leksik ko‘nikmalar va qobiliyatlarni bosqichma - bosqich shakllantirish) va uslubiy (ona tilini hisobga olish) zarur, so‘z birikmasi va nutq faoliyati turlarini o‘zaro bog‘liq ravishda o‘rgatish kerak. Shuningdek, Mashqlarni to‘g‘ri tanlash va ishlatalishdan chet tilni amaliy egallashning samaradorligi kelib chiqadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам: Лингводилактика и методика: Учеб. пособие для студ. лингв. ун-тов и фак. ин. яз. высш. пед. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2004. – 336 с., Рогова Г.В., Рабинович Ф. М. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. – М.: Просвещение, 1991. – 287с.
2. Шамов А.Н. Методика преподавания иностранных языков. Общий курс. – Издание второе, переработанное и дополненное. - Н.Новгород: НГЛУ им. Н.А. Добролюбова, 2005. – 299 с.
3. Николаева Н.В. Образовательные квест-проекты как метод и средство развития навыков информационной деятельности у учащихся // Вопросы Интернетобразования. – 2002. – № 7., Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам: Лингводилактика и методика: Учеб. пособие для студ. лингв. ун-тов и фак. ин. яз. высш. пед. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2004. – 336 с., Рогова Г.В., Рабинович Ф. М. Методика обучения иностранным языкам в средней школе. – М.: Просвещение, 1991. – 287с
4. Richard, Malvern, Milton, Daller Ellis, E. S., & Farmer, T. (1996-2000). The clarifying routine: Elaborating vocabulary instruction. [On-line]. Available: [http://www.ldonline.org/ld\\_indepth/teaching\\_techniques/ellis\\_clarifying.html](http://www.ldonline.org/ld_indepth/teaching_techniques/ellis_clarifying.html).